



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Cambridge, London

Date: 30th September, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

MATNNI O‘QIB TUSHUNISH

KO‘NIKMASINING PSIXOLOGIK OMILLARI

SHAROPOVA FERUZA VALIYEVNA,

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti
universitetining 2-bosqich tayanch doktoranti. Toshkent.

Email: feruzavaliyevna@mail.ru

Annotatsiya:

Mazkur maqolada matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasining psixologik omillari xususida so‘z yuritiladi. O‘qib tushunish faoliyati o‘quvchilarga pedagog tomonidan o‘rgatilsada, faoliyatni qabul qilish va boshqarish o‘quvchi tomonidan amalga oshiriladi. Aqliy faoliyat jarayonlari ta‘lim oluvchining psixologik holatiga bog‘liq bo‘lib, mazkur omillarni hisobga olgan holda olib borilgan dars jarayoni saramali kechadi.

Kalit so‘zlar: matn, o‘qib tushunish, psixologik omillar, munosabat, rag‘bat, shaxsiy samaradorlik, qiziqish.

Sharapova Feruza Valiyevna, 2nd stage doctoral student at Tashkent State
University of Uzbek Language and Literature named
after Alisher Navoi

O‘qish jarayoniga qiziqish 1800-yillar oxirida boshlangan deyish mumkin. Leipzigidagi (Germaniya) Wundt laboratoriyasida psixologik hodisalarning biri sifatida matnni o‘qish o‘rganila boshlangan [2;1111]. Shundan so‘ng o‘qishning pedagogik, psixolingvistik, psixofiziologik jihatlarini tadqiq etish boshlandi.



International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Cambridge, London

Date: 30th September, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

1920-yillarda o‘qib tushunishga Amerika psixologiyasida xulq-atvor (bixeyvioristik) yo‘nalishi sifatida qaralgan bo‘lsa, 1960-yilga kelib kognitiv psixologiyada qiziqish kuchaydi. Olshavskiy (1976-77) kognitiv muammolarni hal qilishda o‘qish jarayoniga aloqador bir qator tadqiqotlarni boshladi. U ishida, shaxsiy hayotida muvaffaqiyatsizlikka uchragan odamlarga yordam berishda o‘qish faoliyatidan foydalandi va yuqori natijalarga erishdi. [3;1] Shundan so‘ng boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘qishdan oldingi, o‘qish davomida va undan keyin qo‘llaniladigan strategiyalar (masalan, oldin maqsad qo‘yish, taxmin qilish va mavjud bilimlarni faollashtirishni) taklif qilindi va amalda qo‘llana boshlandi. Bu izlanishlar esa o‘qib tushunish faoliyati bilan kengroq tanishishga yo‘l ochdi. Matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasining psixologik asosi o‘quvchining yoshiga, o‘sha damdagi psixik holati, ma’lum bir psixik holatga olib keladigan oliy nerv sistemasi faoliyatiga bog‘liq. O‘qish jarayoni inson hayotidagi uzluksiz jarayon bo‘lib, u har bir shaxsda o‘zgacha (o‘ziga xos tarzda) namoyon bo‘ladi.

Alderson (1984) [4;114] o‘qish jarayonidagi asosiy faktor sifatida “o‘quvchi va matn”ni ko‘rsatadi, ya’ni o‘quvchining matnga bo‘lgan munosabati (o‘qish, fahmlash xohishi) asosiy va yagona faoliyat ekanligini ta’kidlaydi.

Kitobxonlar (matnni o‘quvchi shaxs) tushunish darajasining turli xilligi sabablari o‘qishdan maqsad (tanishish; ma’lumot olish; estetik zavq olish, ya’ni dam olish o‘rnida o‘qish) va psixologik yondashuvning har xilligidir. Har bir shaxs o‘qish qobiliyatlarining bir nechtasini qo‘llashiga ko‘ra uni turli darajalarda tushunadi. Bunga, matnni to‘liq tushungan holda baholash, so‘zlarni tushunishga harakat qilish va xulosa chiqarish kiradi. Yazdanpanah [6; 71] ning fikricha, agar shaxs psixologik yordamni to‘g‘ri amalga oshirsa, matnni muvaffaqiyatli tushuna oladi.



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Cambridge, London

Date: 30th September, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari sifatida o'qib tushunishga ta'sir qiluvchi bir nechta psixologik omillar aniqlangan:

1. Yondashuv (munosabat)
2. Shaxsiy samaradorlik
3. Xavotirlik hissi
4. Qiziqish
5. Rag'bat

Yondashuv. Shaxs o'qishdan maqsadi va harakatida qat'iy ishonchda bo'lsa, bu uning o'qishga nisbatan ijobiy yondashuvga ega ekanligini bildiradi, bu esa o'z navbatida natijaning ham ijobiy bo'lishiga olib keladi. Va aksincha, shaxs salbiy qarashlar bilan yondashsa, bu uning o'qilayotgan manbaaga nisbatan salbiy yondashuvda ekanligini ko'rsatib, natijaning ham salbiy bo'lishiga, ya'ni o'qishdan ko'zlangan maqsadni amalga oshira olmasligiga olib keladi. Matnga nisbatan munosabat (yondashuv)ning o'qib tushunishga ta'siri haqida tadqiqotchilar turli fikrlarni bildirganlar. Gutri and Wigfild [4;115] ning fikricha, matni o'qishga bo'lgan munosabat matni o'qib bo'lgan insonda sodir bo'ladigan his-tuyg'uga o'xshaydi, bu yondashuv o'quvchini matni o'qishga undashi yoki undan qochishiga sabab bo'ladi. Yana bir tadqiqotchi [5;437] o'qishga bo'lgan yondashuv kitobxonning yutug'iga sabab bo'lishini, shu bilan birga o'qishga bo'lgan moyillik, rag'bati va qiziqishi o'rtasida ham bog'liqlik borligini aytadi.

Shaxsiy samaradorlik. Shaxsiy samaradorlik ta'rifi Banduraning [1;22] ijtimoiy-kognitiv ta'lim nazariyasiga asoslangan bo'lib, u insonning biliml



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Cambridge, London

Date: 30th September, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

bo'lishi, berilgan vazifani bajara olishi, maqsadli ravishda biror harakatni amalga oshirish potensialiga ega ekanligiga bo'lgan ishonch deb ta'riflanadi. Bir nechta tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, shaxsiy samaradorligi yuqori o'quvchilarda o'qishga qiziqish va o'qiganlarini anglash darajasi boshqalardan ustun ekanligi aniqlangan.

Demak, pedagogik va kognitiv qobiliyat bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni muvaffaqiyatli boshqarishda o'quvchilar shaxsiy samaradorlikka ega bo'lishlari zarur.

Xavotirlik. Ma'lumki, ko'plab o'quvchilar darsda vazifalarni bajarish davomida xavotirga tushadilar, bu qo'rquv, shoshib qolish, duduqlanish ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. O'quvchilarda matn bilan ishlash davomida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning psixologik jihatlarini o'rganishga harakat qilgan tadqiqotchilar [4;117] xavotirlikning 6 ta sababini aniqladilar: matnning lingvistik xususiyatlari, muhit, o'quvchilarning xarakteristikasi, matnning ko'rinishi (hajmi), vaqt chegarasi va o'qituvchilar xulq-atvori. Xavotirlik ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilari va yuqori sinfning salbiy baholanishdan qo'rqadigan o'quvchilarida kuzatiladi. Matnni o'qib tushunishda va test ishlaganda yuzaga keladigan qo'rquv hislari nutqning yomonlashishiga sabab bo'lganligi aniqlandi.

Qiziqish. Ma'lumki, qiziqish hissiy hodisa bo'lib, u insonga ma'lum, ba'zan noma'lum bo'lgan, qaysidir jihati bilan o'ziga jalb qiluvchi narsa-hodisaga nisbatan; shaxsning yon-atrof (atrofdagilar) bilan o'zaro munosabatga kirishishi natijasida paydo bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, matnni o'qish jarayonida o'quvchi bilan matn mazmuni o'rtasida ijobiy aloqa o'rnatilganda qiziqish paydo bo'ladi. [4;117] Birinchi navbatda, e'tiborni tortib, matnga nisbatan qiziqish uyg'otuvchi omil – matn sarlavhasi sanaladi. O'quvchilarning yoshiga mos



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Cambridge, London

Date: 30th September, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

tanlangan turli ko‘rinish va mazmundagi matn, ma’lumot, jadvallar qiziqarli bo‘lib, dars mavzusini va matn mazmunini tez va oson tushunishga katta yordam beradi.

Rag‘bat. O‘quv faoliyatining samarali kechishida muhim motiv hisoblanuvchi omillardan biri rag‘bat hisoblanadi. Rag‘bat ma’lum maqsadlarga erishish istagida boshqariladigan, biror faoliyatni bajarganda yaxshi natijaga erishish imkoniyati bilan saqlanib turadigan hatti-xarakatdir. O‘qish ixtiyoriy faoliyat bo‘lganligi va ma’lum bir kuch, g‘ayrat talab qilganligi sababli o‘quvchini undovchi kuch lozim bo‘ladi. Rag‘batning o‘qish jarayonida ahamiyatli ekanligining aniqlanishi bilan u oxirgi bir necha o‘n yilliklarda tadqiqotlar markaziga aylandi. Psixologlar dars jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lishi uchun ularni tez-tez rag‘batlantirib turish foydadan holi bo‘lmasligini ta’kidlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, ijobiy yondashuv, shaxsiy samaradorlik va rag‘batning mavjudligi nafaqat matnni o‘qib tushunishdagi xavotirlarni kamaytiradi, balki matnni o‘qish paytidagi muammo yoki qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Ta’lim tizimida psixologik omillarni hisobga olish ta’limdan ko‘zlangan maqsadga erishishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York: Freeman.



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Hosted online from Cambridge, London

Date: 30th September, 2023

Website: <https://econferenceworld.org/index.php/ecw/index>

2. Matthew J.T., Morton A.G. Handbook of psycholinguistics. 2nd edition. Department of Psychology, University of California at Davis, Madison, USA. 2006.
3. Mohammad Mehdi Yazdani and Mojtaba Mohammadi. The Explicit Instruction of Reading Strategies: Directed Reading Thinking Activity vs. Guided Reading Strategies; International Journal of Applied Linguistics & English Literature ISSN 2200-3592 (Print), ISSN 2200-3452 (Online) Vol. 4 No. 3; May 2015 Australian International Academic Centre, Australia.
4. Maryam Habibian, Samsilah Roslan Idris, faculty of Educational Studies, “The role of Psychological factors in the Process of reading”, Universiti Putra Malaysia.
5. Farnan, N. (1996). Connecting adolescents and reading: Goals at the middle level. *Journal of Adolescent and Adult Literary*, 39(6),436-445.
6. Yazdanpanah, K. (2007). The effect of background knowledge and reading comprehension test items on male and female performance. *The Reading Matrix*. 7(2), 64-80.